

ROSSIYA-O'RTA OSIYO MUNOSABATLARIDA DASTLABKI ELCHILIKLAR VA ULARNING HARBIY-SIYOSIY MISSIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10431280>

Ilhomov Z.A.

tfn, professor,

Nizomiy nomidagi TDPU

XX asr boshlariga kelib Turkistonda butun mohiyati bilan mustamlakachilik hukmronligini o'rnatgan Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va uning bitmas tunganmas boyliglariga egalik qilishni bir necha asrlar avval o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar XVII asr oxirlari –XVIII asr boshlaridayoq boshlangan edi. Bir necha bor amalga oshirilgan elchilik va josuslik ma'lumotlariga tayangan holda Rossiya imperiyasi davlati hukmron doiralari O'rta Osiyo xonliklarini egallash uchun dastlab qozoq juzlarini bo'ysundirish va ulardan keyinchalik tayanch sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir, degan fikrni ilgari surgan edi.

Ma'lumki, XVII-XVIII asrlarda Sibir hududining Rossiya markazi bilan aloqalari ancha zaif edi. Shimoliy urushda (1700-1721 yy) asir tushgan shvedlar Sibirga keltirilgunga qadar, bu ulkan hududdagi yagona savodli kishilar buxorolik savdogarlar bo'lganligi rus manbalarida qayd etilganligiga e'tibor qaratish kerak. XVII-XVIII asrlarda Sibirda, Tyumenda, Tobolskda va Tura shaharlarida buxorolik va toshkentlik savdogarlar joylashib, bu yerda chorvachilik, savdo-sotiq bilan shug'ullana boshlaganliklarini alohida qayd etib o'tish lozim. Ular O'rta Osiyo bilan aloqalarni davom ettirib, Buxoro va Toshkentda oliy diniy ta'lim olib, keyin Qozon va Ufada o'qiganlar¹⁵⁹.

Rossiya imperiyasi davri tarixiy adabiyotlarida "Moskva davlatining O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlari ikki tomonning ham hayotiy ehtiyojlarini qondirardi", deb hisoblangan. Birgina XVII asrda Buxoro va Xiva elchilari o'n olti marta Moskva va rus chegara shaharlariga tashrif buyurgan bo'lsa, rus elchilari bu davrda to'qqiz marta O'rta Osiyoga kelganlar. Bu elchilik missiyalarining barchasi, asosan, savdo maqsadlarini ko'zlab amalga oshirilgan edi. Lekin Moskva hukumatining O'rta Osiyoga qurol-yarog' va harbiy anjomlarni

¹⁵⁹ Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI–XVII вв. / М. Ю. Юлдашев. – Ташкент, 1964. – 67-69 с.

chiqarishga ruxsat bermaganliklari e'tiborni tortadi¹⁶⁰. O'rta Osiyoga metall chiqarish hukumat buyrug'i bilan keskin nazorat ostiga olinib, cheklab qo'yilgan edi. Xususan, Astraxanda O'rta Osiyolik savdogarlarga sotish taqiqlangan mahsulotlar ro'yxatida oltin, kumush, temir, qalay, mixlar va boltalar ko'rsatilgan. XVIII asrdayoq Rossiya hukumati O'rta Osiyoga arzon xom ashyo manbai sifatida qaray boshladi. A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi (1714-1717 yy), F.Benevenining Buxoroga elchiligi (1721 y) ochiq-oydin harbiy razvedka maqsadlarini ko'zlab (oltin konlarini aniqlash, asosiy quruqlik va suv yo'llarini qayd etish, kartografik ma'lumotlar to'plash va boshqalar) amalga oshirilgan edi. Orenburg va Sibir mudofaa yo'nalishining qurilishi Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan tutgan harbiy siyosiy maqsadlarini aniq ko'rsatib turardi. Bu intilish Turkistonning istilo etilishiga qaratilgan edi¹⁶¹.

XVII asr oxirlari - XVIII asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmagan rus podsholigi hukmron doiralari uchun Buxoro xonligi hamda Xiva xonligi haqidagi har qanday mazmundagi ma'lumot ham katta ahamiyat kasb etardi. Shu maqsadda turli yo'llar hamda turli maqsadlarda xonliklar hududida bo'lib qaytgan savdogarlar, sayohatchilar kabilarning ma'lumotlarini sinchiklab o'rganish, ularni to'plash va tahlil etish etish rus podshosi darajasida jiddiy e'tibor qaratilgan holatlardan biriga aylandi. Rus podshosi Pyotr Alekseevichning¹⁶² farmoniga binoan Andrey Narishkin¹⁶³ tomonidan 1697 yilda Qozoq sultoni Tavkaxon o'rdasida bo'lgan boyar Fedor Skibin va uning hamrohlarini tergovga chaqirilgan va so'roq qilingan. So'roq asosan Fedor Skibin va hamrohlarining ko'rgan kechirganlarini aniqlash va va ular asosida ma'lumotlar yig'ishga qaratilgan edi.

Shu o'rinda bu kabi "sayohatlar" va elchiliklar haqida ikki og'iz so'z yuritsak. Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra Xiva xonligi va Buxoro xonligiga ruslarning dastlabki elchiliklari asosan kichik savdo aloqalari ko'rinishida bo'lib, xonliklarning rus hukumatiga yuborgan dastlabki elchiliklari 1585 yilda Astraxanga Buxoro xonligi elchisi Muhammad Ali hamda Xiva xoni elchisi Xoja Muhammadlarning kelganligi bilan belgilanishi ko'rsatib o'tiladi¹⁶⁴. Ta'kidlanishicha, elchiliklar tom

¹⁶⁰ Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). Toshkent, «Navro'z», 2020. 79-80-bet; Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). Toshkent, «Innovatsiya-ziyo», 2022. 80-bet.

¹⁶¹ Эргашев Ж.Ю., Очилов А.Т. Савдо йўлларида хизмат кўрсатиш (Бухоро хонлиги мисолида). ҚарДУ хабарлари. Қарши, 2019 йил. 2-сон. 46-50-бб.

¹⁶² Пётр Алексеевич – (1672 йил 30 май, Москва, – 1725 йил 28 январь, Санкт-Петербург) – 1682 йилдан Рус подшоси, 1721 йилдан Россия империясининг биринчи императори.

¹⁶³ Андрей Фёдорович Нарышкин – Петр I саройи амалдорларидан бири, 1693-1698 йилларда Тобольск воеводаси (бир вақтнинг ўзида қалъа ва харбий кўшин кўмондони)

¹⁶⁴ Андреев А.А., Резван М.Е. Развитие дипломатической традиции персидских, хивинских и бухарских посольств в России с конца XVI до начала XVIII в./ КУНСТКАМЕРА. № 2 (4) 2019. Стр.51-62.

ma'noda savdo xususiyatiga ega bo'lib, Xiva elchisi xonga tegishli va o'ziga tegshili bo'lgan mollar bilan savdo qilgan, Buxoro xonligi elchilari tarkibida esa e'tiborli jihati mulla yoki oxund lavozim bo'lganligi ko'rsatib o'tilgan¹⁶⁵.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Buxoro va Xiva xonliklaridan Rossiya davlatiga kelgan elchiliklar asosan savdo maqsadlarida kelgan bo'lsalar, shu davrdan asta-sekin geografiyasi kengayib borayotgan rus elchiliklarining O'rta Osiyoga kelishlarida ma'lum siyosiy maqsadlar ham ko'zga tashlanib boradi. Ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak ko'rish mumkinki, Fedor Skibin sayohati ruslarning O'rta Osiyoga amalga oshirilgan dastlabki sayohat bo'lmagan, bungacha ham 1589 yilda Buxoroga Boris Godunovning elchisi Boybiri Tayshev, 1614 yilda rus sayohatchilari Tixanov va Buxarovlar Buxoro va Xivada bo'lib, asosan savdoy yo'llari haqida ma'lumotlar to'plaganlar. 1620 yilda Buxoroga yuborilgan Ivan Xoxlov¹⁶⁶, 1642 yilda Xiva va Buxoro xonliklarida bo'lgan astraxanlik savdogarlar Savin Goroxov va Onisim Gribov¹⁶⁷ kelgan bo'lsalar, keyinchalik Gribov 1646 yilda Kaspiyning sharqiy qirg'oqlari bo'ylab Eronga o'tib ketdi¹⁶⁸. Aka-uka Boris va Semyon Pazuxinlar¹⁶⁹, Buxoroga borgan V.Daudov va M.Kosimovlar elchiliklari¹⁷⁰ va ekspeditsiyalari ham podsho saroyi hukmron doiralariing diqqat e'tiborida bo'lib, ularning ham yetkazgan ma'lumotlari alohida nashrlar qilinganligini ko'rsatib o'tish mumkin¹⁷¹. Fedor Skibin va uning hamrohlarining tergov qilinishi ham yuqorida ta'kidlanganidek aynan ma'lumotlar olish maqsadida amalga oshirilgan edi. 1694 yilda O'rta Osiyoga yuborilgan Fedor Skibin elchiligi haqida ma'lumotlar ko'p bo'lmasada, uning Tobolsk kazaklaridan ekanligi, unga berilgan diplomatik topshiriqlarga ko'ra u Buxoro yoki Xivaga emas, balki Tobolsk orqali

¹⁶⁵ Развитие дипломатической традиции персидских, хивинских и бухарских посольств в России с конца XVI до начала XVIII в. Стр.54.

¹⁶⁶ Иван Хохлов - 1620-1622 йилларда рус подшоси князь Михаил Федорович томонидан Бухорога элчи қилиб юборилган, унга Москвадан Бухоро хонлиги элчиси Одамбой хамроҳ бўлиб келган ва Бухоро хони Имомқулихон қабулида бўлган.

¹⁶⁷ Онисим (Анисим) Грибов рус подшоси Михаил Федоровичнинг 1641 йил 31 майдаги имзоланган фармони билан куллиқда бўлган рус фуқароларини озоди қилишни сўраб Хива хонги исфандиёр хузурига юборилган эди. Қаранг: Торговля с Московским государством и международное положение Средней Азии в XVI-XVII вв. https://drevlit.ru/docs/central_asia/XVI/1580-1600

¹⁶⁸ Начало "войны за степь" в Южной Сибири.... <https://sergeybogomolov.livejournal.com>

¹⁶⁹ Пазухинлар рус подшоси Алексей Михайлович томонидан Бухоро ва Хива юборилган элчилик бўлиб, 1669 йил 22 июлда подшонинг Бухоро ва Хивадаги рус кулларини озод қилиш ва сотиб олиш мақсадида юборилган. Элчилик 1669-1673 йилларда давом этган.

¹⁷⁰ Муҳаммадюсуф Қосимов элчилиги 1675 йилда Бобурийлар подшоси Аврангзеб саройига, Ҳиндистонга уюштирилган. Элчилик йўл-йўлакай Бухоро ва Хива хонлиқларида ҳам бўлиши, у ерда рус кулларини озод қилиш, Амударё ҳақида маълумот йиғиши кераклиги кўрсатилган. Элчилик тарқибида В.А.Даудов ҳам бўлиб, у Бухоро ва Хивадан сўнг ортига, Москвага қайтиши ва маълумотларни тақдим қилиш вазифаси юклатилган эди.

¹⁷¹ Василий Александрович Даудов асли форс (эронлик) бўлиб, 1653 йили Қозонда христианликни қабул қилган, Россия давлатининг хизматиға кириб, стольник ва воевода лавозимларида хизмат қилган. Қаранг: Автобиография В.А.Даудова /Русский архив, год 1889. Кн .2. С.5-20.

Qozoq O'rdasiga borganligi va bu elchigi, aniqrog'i sayohati deyarli ikki yil davom etganligi ma'lum¹⁷².

F.Skibin elchiligi 1694 yil aprel oyida savdo yo'llari orqali Tobolskdan O'rta Osiyoga yo'l oladi. Elchilikka asirlikdan ozod etilgan mirza Kildey ismli shaxs yo'l boshlovchilik qiladi. Elchilar karvoni Ishim daryosining yuqori oqimlarigacha borib, Sarisuv daryosi tomon yo'nalganda mahalliy aholining xujumiga uchraydi. Mirza Kildey hujum qilganlar oldiga borib ular bilan rus elchilariga hujum qilmaslikni so'rab muzokara qilmoqchi bo'lganda o'zi asirlikka tushib qoladi. Elchilar karvonidan bir qancha odamlar o'ldirilib, qolganlar qochishga va yashirinishga majbur qilinadi. Kechasi ular qalmiqlarga duch kelishadi, o'zlarining hujumga uchraganliklari haqida aytib, ulardan Tavkaxon o'rdasiga Turkiston shaxriga yashirincha kuzatib qo'yishni iltimos qiladilar va ularning xizmat xaqini mo'ynalar bilan to'lashlarini aytadilar. Qalmiqlar rozi bo'lib, tuyalar olib kelish uchun ketadilar va bir oz vaqt o'tib ko'plashib qaytib keladilar va F.Skibin hamda uning hamrohlarini bog'lab o'zlari bilan olib ketadilar, o'z uluslariga borgach esa ularni sotib yuboradilar. Oradan to'rt kun o'tib qalmiqlar oldiga mirza Kildey keladi va rus asirlari elchilar ekanligi, ularning qozoqlar yerlariga ketayotganligini aytib, ozod qilishga kelishadi. Barcha asirlar ozod etilib, yalangoyoq va yarim yalong'och holda egarlanmagan otlarga o'tkazib, Turkistonga yo'l oladilar va u yerga 22 iyulda yetib boradilar¹⁷³.

Shu tariqa boshlangan elchilik bir qancha voqealarga boy ravishda nihoyasiga yetadi, elchilik davomida ular bir qancha ma'lumotlarni to'playdilar va keyinchalik so'roq jarayonida shu ma'lumotlarni bayon etadilar. Andrey Narishkin Fedor Skibin va uning hamrohlaridan Tavkaxon¹⁷⁴ o'rdasidan Buxorogacha qancha masofa ekanligi, yo'llarning quruqlik yoki daryolar orqali o'tishi, Buxorodan Yoyiq (Sirdaryo) gacha necha kun yurilishi, Buxoroga Xiva yoki Astraxanning qay birining yaqinroqligi va daryo yoki quruqlik orqali qancha muddat yo'l yurilishi, yo'llarda tog'larning bor yoki yo'qligi kabilarni aniqlash, aniqlangan yo'llarning masofasini va yo'nalishlarini xaritalarga tushirib, zudlik bilan Moskvaga yuborish buyurilgan. 1697 yil fevral oyining 14 kunida A.Narishkin podsho Pyotr Alekseevichning farmoni yuzasidan aniqlangan ma'lumotlar haqida quyidagi hisobotni tayyorlagan¹⁷⁵.

¹⁷² Княжецкая Е.А. Странствия и приключения Тобольского казака Федора Скибина. / Уральский следопыт. №1, 1973 год. Стр.26-29.

¹⁷³ Странствия и приключения Тобольского казака Федора Скибина. Стр.27.

¹⁷⁴ Тавкахон - 1635-1715 йилларда Кичик козоқ жузи хони

¹⁷⁵ Сыскное дело 1697 года о дороге в Хиву // Русский архив, № 3. 1867. Каранг: https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XVII/1680-1700/Sysk_delo_dor_Chivu

–“Sizning, buyuk olampanox, farmon va amringizga ko’ra, Tobolsk boyarlari - Fyodor Skibin, Vasiliy Kobaykov, oqliq kazaklar - Aleksandr Alemasov, Matyushka Troshin, Potapko Mixaylov, Fomka Moseev, Larka Serebryakov, tarjimon Bogdashka Neustroev, sud ijrochisi Fedka Lenev, Alyoshka Shchepotkin, Yakushko Ufines; yangi cho’qingan qolmiqlar - Klimko Alekseev, Ivashko Grigoriev, Buxaretin Tyuluk-bay; Tobolsk tatarlari - Yulyuk Shamanaev, Taushko Merchen, Anik Chichirev Tergov palatasiga keltirilib so’roq qilindi va so’roq paytida ular quyidagilarni ma’lum qildilar:

- Tobolskdan Qolmiq yurti va Buxoro va Qozoq o’rdalarigacha, Tobolskdan Irtish daryosi bo’ylab yuqoriga Shanshin yurtigacha o’ttiz verst¹⁷⁶ va Irtishni o’ng qirg’og’iga kechib o’tib Tobolsk gubernyasining ko’plab o’tloq va yaylovlari, ko’llari, daraxtzorlari orqali Adbashsk chegara istehkomiga to’rt kun; Vagay daryosi orqali Kapkaninsk (Qopqon) volostiga kechuv orqali ikki kun; vagay daryosini kechib o’tib, mayda botqoqliklar orqali Yakishul ko’lini aylanib o’tib Ishim daryosining Korasun daryosiga quyilishi joyining quyi va yuqori oqimlariga tomon to’rt kunlik yo’l; Ishim daryosi bo’ylab Shanshi-qarag’ay o’rmonzorigacha o’n kun va Ishim daryosini kechib o’tib tabiiy belgilarga qarab yo’l tanlab Ishim daryosining yuqori oqimidagi Toshkechuv¹⁷⁷gacha o’n kun yurish kerak bo’ladi. Bu yo’llardan faqatgina ot va tuyalarda yurish mumkin, aravalarning yurishi mutlaqo imkonsiz, chunki ko’p joylarda yo’lning o’zi yo’q yoki ko’p yo’llar toshloq va tepaliklar, o’rmonzorlar, botqoqliklarning ko’pligi, daryolarning o’tish qiyin bo’lgan oqimlarida ko’priklarning yo’qligi bunga imkon bermaydi.

Ishim daryosi bo’ylab toshloq yo’lda odamlarga baliq va parrandalar bilan, otlarga esa o’tloqlarda oziqlanish imkoni bor. Ishim daryosining yuqori oqimidagi Toshkechuvdan Tavkaxonning o’rdasi Turkiston shaxrigacha to’g’ri yo’l, yo’l bo’ylab otlar oziqlanishi uchun yaylovlar ko’p. Sarisu daryosi orqali Ulug’tog’ yonidagi Chiganaman daryosigacha to’rt kun, Chiganaman daryosidan dasht bo’ylab Targans cho’qqisi orqali Tinirko’l ko’ligacha, unda tog’liqlar va cho’qqilar baland emas, udan keyin esa To’rg’ay daryosigacha uch kunlik yo’l, bu atrofda yashovchi aholining jangovarligi sezilib turadi. Tinirko’l ko’lidan toshloq orqali Kinir daryochasidan o’tib katta Kinirboy daryosigacha bir yarim kunlik yo’l, Kinirboy daryosi Sharqdan Ishim ko’llaridan toshloq orqali Sarisuv daryosi bilan yonma yon oqadi, ayrim joylarda oqim tezligi juda yuqori.

¹⁷⁶ 1 верст – тахминан 1.07 км (1066.8 м) га тенг узунлик ўлчови

¹⁷⁷ Каменный брод

Tobolskdan Turkiston shaxrigacha Ishim daryosidan yuqorida ko'rsatilgan yo'llar orqali o'rtacha yurish bilan ikki oy, tez yurilsa o'ttiz kun, shoshilmay yurilsa to'qqiz haftada yetish mumkin"¹⁷⁸.

Turkistondan Buxoro, Xiva va turkmanlar yerlarigacha bo'lgan masofalar va yo'llar haqida ham bir qator ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan, ularda jumhdan quyidagilar haqida so'z yuritiladi:

–“Turkistondan Buxoro va Sirdaryogacha otda yarim kunlik masofa, Dorquduq nomli quduqni aylanb o'tib uch kunlik yo'l, bu quduqdan uchta quduq orqali Ashtligacha besh kunlik yo'l, Ashtli qudug'idan Buxoro xududlarigacha esa yo'lsiz va suvsiz sharoitda tuyada olti kunlik masofa bor, bu yerda suv tuyalarda tashiladi. Buxoro shaxrining devori ham Turkiston shaxri devoriga o'xshash, lekin uning kirish joyigacha o'n ikkita minora bor. Ularning egasi Somonqulixon bo'lib, uning hukmi ostida ko'plab shaxarlar va qishloqlar bo'lib, shuningdek, bir ming to'rt yuz kishilik harbiy qo'shini bor. Bu yerning aksariyat odamlari hunarmandlar, savdogarlar bo'lib, ular harbiy emas, qo'shinda mayda o't ochar qurollar ko'p, o'q dori va qo'rg'oshini o'zlari tayyorlaydilar, zambaraklar esa taxminan elliktalar. Bu yerning havosi va suvi toza emas, shamol ko'p bo'ladi. Buxoro mulklaridan unga yaqin bo'lgan Amudaryo daryosini kechib o'tib Xiva xonligiga tobe bo'lgan shaxarlarga va Xiva shaxrigacha karvon yo'llari va ko'chmanchilar yuradigan yo'llar bo'ylab o'n besh kun yurish kerak, bu yerlarda shaxar oralig'ida qumli dasht va suvli joylar ko'p, lekin suvlar toza emas¹⁷⁹. Xiva shahari Buxoro shaharidan kichikroq, biroq qurilish uslublari va shaxarsozligi deyarli bir-biriga o'xshash, Xiva shaxri atrofida unga tobe bo'lgan boshqa shaharlar Buxorodagi kabi judayam ko'p, aholisi esa jangovor emas, balki ko'proq hunarmandlardir. Miltiq va poroxni o'zlari tayyorlaydilar, zambaraklarni esa bu yerlarda ko'rmadik, boyarlarini “atalsk”¹⁸⁰, davlat xizmatchilarini o'zbeklar, dexqonlarni raiyat deb ataydilar. Ularda orolliklar, gurlanliklar, turkmanlar kabi urug'lar bor”¹⁸¹.

A.Narishkin tomonidan 1697 yilda Tobolskdan Qozoq sultoni Tavkaxon o'rdasida bo'lgan boyar Fedor Skibin va uning hamrohlarini bayon qilgan ma'lumotlar asosida mutaxassislariga darhol xarita tayyorlatadi va uni tezlik bilan podsho xuzuriga yuboradi:

–“Sening amring bilan biz boyar Fedor Skibin va uning hamrohlarining aytgan ma'lumotlari asosida Buxoro qog'oziga¹⁸² daryolar, o'rmon va daraxtzorlar,

¹⁷⁸ Сыскное дело 1697 года о дороге в Хиву // Русский архив, № 3. 1867.

¹⁷⁹ балки бу ерда сувнинг шўрлигига ишора қилинган бўлиши мумкин

¹⁸⁰ Оталиқ бўлиши мумкин

¹⁸¹ Сыскное дело 1697 года о дороге в Хиву // Русский архив, № 3. 1867.

¹⁸² ...на Бухарской бязи (Бязь — бумажная ткань, бумажный холст)

yo'llar (Buxoro va Xivaga olib boruvchi-Z.I), shaharlar chizmasini chizdirib, yuzboshi kazak Fedot Matigorov hamda tatar Steushk Merchen orqali sizga yubordik, ularga Moskvaga yetib borishi bilanoq chizmalarni zudlik bilan knyaz Ivan Borisovich Repninga topshirishi shartligi haqida ko'rsatma berildi"¹⁸³.

Yuqoridagilardan anglash mumkin-ki, Buxoro va Xiva xonliklari haqidagi savdogarlar, sayohatchilar, elchiliklar va boshqalardan olinadigan har qanday ma'lumot rus podshosi darajasida juda katta e'tiborga molik bo'lganining o'ziyoq bunday ma'lumotlar Rossiya imperiyasi uchun keyinchalik mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishida nihoyatda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

¹⁸³ Сыскное дело 1697 года о дороге в Хиву // Русский архив, № 3. 1867.